

**YOSH OILALARDA IJTIMOIY ADAPTATSIYA JARAYONI MUAMMOLARI****Ibragimov J.I.**

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti

O‘zbek tili ta’lim kafedrasи o‘qituvchisi.

**Qo‘qonboyeva G.S.**

sotsiologiya yo‘nalish talabasi.

[gulnozaqoqonboyeva@gmail.com](mailto:gulnozaqoqonboyeva@gmail.com)<https://doi.org/10.5281/zenodo.14033880>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yosh oila tushunchasi, yosh oilaning ijtimoiy adaptatsiya jarayonlari va ajrimlarning asosiy sabablari kengroq o‘rganilgan va yosh oila kategoriyasiga qaysi yoshdan qaysi yoshgacha kirishi va yevropa yozuvchilarimizni ham oila haqida qarashlari, qisman aytib o‘tilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstititsiyasida berilgan oila haqidagi kodeks ya’ni moddasi va shaxslarda ijtimoiy moslashuv jarayoni qanday kechishi haqida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yosh oila, ijtimoiy moslashuv, yosh oila kategoriyalari, oiladagi ajirimlar.

**PROBLEMS OF THE PROCESS OF SOCIAL ADAPTATION IN YOUNG FAMILIES**

**Abstract.** In this article, the concept of a young family, the processes of social adaptation of a young family, and the main reasons for decisions are studied more widely, and at what age a young family enters the category, and the views of our European writers about the family are also partially mentioned. The article of the family code given in the Constitution of the Republic of Uzbekistan and how the process of social adaptation of individuals is explained.

**Keywords:** Young family, social adaptation, categories of young family, differences in the family.

**ПРОБЛЕМЫ ПРОЦЕССА СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ В МОЛОДЫХ СЕМЬЯХ**

**Аннотация.** В данной статье более широко изучаются понятие молодой семьи, процессы социальной адаптации молодой семьи, основные причины принятия решений, а также то, в каком возрасте молодая семья входит в эту категорию, а также взгляды наших европейских писателей о семье также упоминаются частично. Статья семейного кодекса, данная в Конституции Республики Узбекистан и как разъясняется процесс социальной адаптации личности.

**Ключевые слова:** Молодая семья, социальная адаптация, категории молодой семьи, различия в семье.

**Kirish.**

Oq yo'rgakka o'ralib dunyo bo'lmish hayot ostonasiga asta qadam qo'yamiz birinchi qadamimiz kindik qonimiz to'kilgan diyor ona vatanga qo'yiladi. Vatan ichra kichik bir vatan ya'ni oilada ulg'ayamiz. Qanday oilada dunyoga kelmaylik shu oila qadriyatlariga urf-odatlariga moslashamiz. Shunday ekan oila va nikoh jamiyatning ajralmas bo'g'ini hisoblanadi.

Bizga ma'lumki yurtimizda oila, nikoh masalalari azal azaldan qadrlanib kelinadi. Bu muqaddas qadriyatlar hozirgi davrgacha ham o'z qadr-qimmatini yo'qotgani yo'q. Oilalarning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ro'li beqiyos, chunki har bir shaxs tarbiyasi avvalo kichik bir vatan oiladan boshlanadi. Bugun o'zbek jamiyati uchun har tomonlama sog'lom, barkamol, yetuk shaxslar kerak. Bunda jamiyatda oilaning rolini oshirish uni yanada mustahkamlash, oiladagi sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish, yosh oilalardagi ijtimoiy-psixologik adaptatsiya jarayoning muammolari yuzasidan tadqiqot olib borish asosiy muammolardan biri hisoblanadi.

Bu borada davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek — “Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi”<sup>1</sup>. Darhaqiqat jamiyatning kuch-qudratini ta'minlaydigan eng oliv qadriyat bo'lgan oilaning tinchligi va mustahkamligi ahamiyati beqiyosdir.

Yosh avlodni yetuk shaxs qilib tarbiyalash ularni hayotda o'z o'rnini topishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish uchun albatta, jamiyatdagi endi tarkib topayotgan yosh oilaga e'tibor qaratish lozimdir. Shu o'rinda aytishimiz kerakki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida “Oila jamiyatning ajralmas bo'g'ini ekanligi e'tirof etilgan: Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega”deya aytilgan.

**Muhokama va natijalar:** Oila va nikoh haqida gapirilganda, ushbu tushunchalar turli tarixiy davrlarda paydo bo'lganligini qayd etish shart. Oila, o'z o'rnida munosabatlarning murakkab tizimi sifatida nafaqat er-xotin, balki, ularning bolalari, boshqa qarindoshlar hamda er-xotin uchun yaqin va qadrli bo'lgan insonlarni ham birlashtiradi. Oilani ilmiy o'rganishda sotsiologik va ijtimoiy-psixologik bilimlar xususiyatlari borasidagi masalalar jiddiy ahamiyat kasb etadi. Sababi, oila – ham sotsial institut ham kichik guruhdir.<sup>2</sup> Sotsiologlar «oilaning maxsus sotsiologik nazariya» sini ilgari sursalar<sup>3</sup>, psixologlar esa oiladagi o'zaro munosabatlarga murojaat etadilar<sup>4</sup> Masalan A.G. Xarchevning fikriga ko'ra, oila er va xotin o'rtasidagi tarixiy shakllangan

<sup>1</sup>Shavkat Mirziyoyev «Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi» Xabar.uz 22.01.2018;

<sup>2</sup>Харчев А.Г. Брак и семья в СССР. – М.: Наука, 1979. – С. 34.

<sup>3</sup>Тощенко Ж.Т. Социология. Общий курс. 2-е изд. доп. и перераб. – М.: Прометей, Юрайт, 1999. – С. 201.

<sup>4</sup> Психология. Словарь. М.: Политиздат, 1990; Левкович В.П. Особенности супружеских взаимоотношений в разнонациональных семьях // Психол. журн. 1990. Т. 11. № 2. - С. 25-36; Олейник Ю.Н. Исследование уровней совместимости в молодой семье // Психол. журн. 1986. Т. 7. № 2. - С. 59-65

o‘zaro munosabatlar tizimi bo‘lib, uning a’zolari nikoh va qarindoshlik rishtalari, umumiy ro‘zg‘or, hissiy bog‘liqlik va o‘zaro axloqiy majburiyatlar bilan bog‘langan. Buyuk allomalarimiz Mahmud Koshg‘ariy, Ahmad Yugnakiy, Kaykovusdan tortib Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek va boshqalargacha o‘z asarlarida oilaviy masalalar, xususan, oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, bola tarbiyasida ota-onas, bobo-buvining o‘rni, komil va vatanparvar shaxsni yetishtirishda bu muhim ijtimoiy institutning roliga alohida yondashib, ibratl hikoyatlar, rivoyatlar, farzandlarga maktublar, hikmatli so‘zlar, she’riy satrlar orqali pandnasihatlar, hayotiy xulosalar yozib qoldirganlar.

Yana bir yozuvchimiz nemis faylasufi Immanuil Kant ham o‘z asarida “Inson faqat ta’lim-tarbiya orqali shaxsga aylanadi, uning qanday bo‘lishi tarbiya natijasidir” degan fikrni bildirgan.

Mana shunday ekan avvalo oila qurayotganda hayotning past-balandoqliklarida ham bir birini qo‘llab-quvvatlash har qanday vaziyatda ham ertangi farzandlari tarbiyasini ularni jamiyatga barkamol yetuk shaxs qilib yetkazishini qarorlar qabul qilayotganida hayotga yengil qaramasdan bularni chuqurroq o‘ylashi lozim.

Hozirda sotsiologik adabiyotlar va rasmiy hujjatlarda “yosh oila” tushunchasini izohlovchi yaxlit yondashuv mavjud emas. “Yosh oila” ning oila shakli sifatida ommalashgan ta’riflaridan biriga ko‘ra, nikoh tuzilgandan keyingi uch yil (farzand tug‘ilishi munosabati bilan nikoh davomiyligidan qat’iy nazar) nazarda tutilib, bunda oilaviy juftlik yoshi 30 dan oshmagan bo‘lishi, shuningdek, farzandli oilalarda ota-onalardan biri 30 yoshgacha bo‘lishi nazarda tutiladi.<sup>5</sup>

Demak, yosh oila – bu rasman qayd etilgan nikoh munosabatlariga kirishgan 18 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan er va xotin birligidir.<sup>6</sup>

Odatda yosh oila tushunchasi oilaviy hayotning dastlabki 10 yilini o‘z ichiga oladi.

Umuman, fanda yosh oilani tavsiflaganda quyidagi mezonlar inobatga olinadi:

- juda yosh oila - nikohga kirgan vaqtidan toki 4 yilgacha;
- yosh oila - 5 yildan 9 yilgacha;
- o‘rta oilaviy hayot muddati - 10 yildan 19 yilgacha;
- katta oilaviy hayot muddati - 20 yil va undan ortiq muddat turmush kechirganlar oilasi.<sup>7</sup>

Nikohdan o‘tib oila qurilgandan so‘ng u bir necha bosqichlarni bosib o’tadi. Shulardan eng ko‘p kuzatiladigani ham ijtimoiy va psixologik jihatdan katta ahamiyat kasb etadigani ham aynan yosh oila bosqichiga to‘g’ri keladi. Bu bosqichda er-xotinlarning oilaviy hayot xaqidagi

<sup>5</sup>Ростовская Т.К. Молодая семья в современном российском обществе // Молодежь и общество. – №3. 2007. – С. 41-46.

<sup>6</sup>Молодая семья: проблемы и перспективы социальной поддержки / под общей редакцией Е.В.Жижко, С.Д.Чигановой. – Красноярск: РУМЦ ЮО, 2005. – 300 с

<sup>7</sup> Психология семьи: Учебник для педагогических Вузов // Автор: В.М.Каримова. - Т; 2007. - 316 с.

tasavvurlari shakllanadi, farzandlar dunyoga keladi, ularni tarbiyalash, voyaga yetkazish bilan bog'liq bo'lgan asosiy ishlar amalga oshiriladi. Shularni hisobga olgan holda hukumatimiz tomonidan yosh oilalar, ularning mustahkamligini ta'minlash va ularni ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, yangi oilaning barqarorligini ta'minlashga imkoniyatlar yaratish borasida ham bir qator ishlar amalga oshirilmokda. Oilaviy hayotning o'ziga yarasha notekisliklari, past-balandliklari, murakkabliklari, muammolari bo'ladi. Ana shu muammollar ya'ni ijtimoiy adaptatsiya jarayonida er-xotin bir birlarini qo'llab quvatlashi lozim. Yosh oilalarda ijtimoiy adaptatsiya jarayoni yaxshi kechmayotganligi tufayli ham ajrimlar soni ko'paymoqda.

Yoshlardan nimaga ajrashmoqchisilar deb so'rasha biz bir birimizni tushuna olmadik bir birimizga to'g'ri kelmas ekanbiz deb aytishadi. Har bir oilada tortishuv va kelishmovchiliklar bo'lib turadi. Ikki xil oilada, vaziyatda voyaga yetgan, dunyoqarashlari ikki olam bo'lgan insonlarning bir-birini tushunishi, murosa ila oila boshqarishiga, tabiiyki, ma'lum bir muddat zarur. O'zini va yonidagi umryo'ldoshini hurmat qilgan inson turli kelishmovchilik va xatolarga ko'z yumadi, muammolarda aybdorni emas, uning kelib chiqish sabablarini topib, bartaraf qilishga harakat qiladi. Mutaxassislar tomonidan olib borilgan so'rovnomalar natijasida O'zbekistonda oila buzilishiga olib keluvchi bir qancha sabablar aniqlandi:

Yoshlarda oila va oilaviy munosabatlар haqida bilimning yetishmasligi. Bu holat er-xotin o'rtasidagi ziddiyat va kelishmovchiliklarga sabab bo'lib kelmoqda. 2020-yil ma'lumotlariga ko'ra, aynan bu muammo ajrim sabablarining 44% ni tashkil qiladi.

Erta turmush qurish. Erta turmush qurban insonlar o'rtasida oila mas'uliyatini to'liq tushunib yetmaganligi sababli tez-tez ajrashish holatlari kuzatilmoqda.

Qarindoshlar o'rtasidagi nikoh. Qarindoshlar o'rtasidagi nikoh er-xotin ajrimiga sabab bo'lish bilan bir qatorda qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlар uzilishi, nogiron farzandlar dunyoga kelishi ko'rsatkichlarining o'sishiga olib kelmoqda.

Oilaga uchinchi shaxslarning aralashuvi. 2020-yil ma'lumotlariga qaraganda, aynan oilaga uchinchi shaxslarning aralashuvi ajrim sabablarining 15% ni tashkil qiladi.

Ihsizsik va migratsiya holatlari. 2020-yil tadqiqot natijalariga ko'ra, ihsizslik, iqtisodiy ta'minlanmaganlik ajrim sabablarining 10% ni ko'rsatsa, ichki va tashqi migratsiya sababi 7% ni tashkil qilmoqda

Befarzanlik. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, dunyo bo'yicha ajrimlarning 15% befarzandlik tufayli yuz bersa, O'zbekistonda 4,7% sodir bo'lmoqda.<sup>8</sup>

<sup>8</sup> Махалла ва оиласи кўллаб-куватлаш вазирлиги томонидан берилган statistik маълумотлар. 2020 йил декабрь маълумотлари.

Ularning ba'zilariga ajrimdan boshqa chora topilmasligi, ba'zilari shunchaki "bahona"ligini tushunish tafakkur qilib ko'rgan odam uchun qiyin emas, bularni eng asosiysi yoshlarning oilaga moslashuvi yaxshi kechmayotganligidir. Aslida ijtimoiy moslashuv - bu shaxsnинг jamiyat va uning me'yorlari, qadriyatlar, tartib-qoidalari, rollar tizimiga moslashish jarayonidir. Bu jarayon yangi ijtimoiy muhitga kirib borish, u bilan o'zaro ta'sir o'tkazish va jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishni o'z ichiga oladi.

Moslashuv jarayonida shaxs quyidagi masalalarni hal etadi:

- Yangi ijtimoiy muhit talablariga mos keladigan xulq-atvor o'rganish.
- Yangi rollar, maqom va statuslarni egallash.
- Yangi qadriyatlar tizimini o'zlashtirish.
- Yangi ijtimoiy aloqalar o'rnatish.
- O'z "Menini" yangi sharoitlarga moslash.

Shu kabi omillar yosh oilalarda to‘g‘ri shakllansa ijtimoiy adaptatsiya jarayoni yaxshi kechadi va oilada farzandlar sog‘lom muhitda tarbiyalanadi va katta bo‘lishadi.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish keraki, yosh oilalarga nikoh oldi ko‘nikmalarini berish nikoholdi omillari qatoriga shu oila qurayotgan yoshlarning oilaviy hayotga etukligi, ularga oila qurish motivlari, ularning oila qurishlariga qadar bir-birlarini tanish muddati (qancha vaqt bir-birini tanishi) shartlari va sharoitlari, ularni o‘zlarini bo‘lg‘usi oilaviy hayotlari haqidagi tasavvurlari kabilarni kiritish mumkin. Ko‘plab olimlarning ta’kidlashlaricha, yosh oilaning mustahkamlanib, oyoqqa turib ketishi, turli maishiy muammolarni o‘zi mustaqil xal qilishi uchun zarur bo‘lgan muddat aslida turmush qurgan ikki shaxsnинг bir-biriga bo‘lgan samimiyy munosabatiga, oila va uning atrofidagi turli qadriyatlarga nisbatan uyg‘un qarashlariga, ota-onasida ibrat sifatida ko‘rgan-kechirganlarini ijobiy tomonlarni o‘z oilasida qo’llay bilishi va mahoratiga bevosita bog’liqdir.

Yosh oilalarda munosabat tizimi asosiy rol o‘ynaydi bunda ikki yoshning bir-birini tushunishi evaziga oiladagi tashqi ta’sirlarning yuzaga kelishining oldini olinadi. Psixologik nuqtai nazarda ham ijtimoiy adaptatsiya jarayoni yosh oilalardagi o‘zaro munosabatlarda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Yosh oilalarning qo’llab-quvvatlanishi o‘sha jamiyatning tarraqqiy etishiga zamin bo‘ladi. Yosh oilada oilaviy munosabatlarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi uchun ko‘mak berish oilaning katta avlod vakillari orqali nazorat o‘rnatish bunda mahalla hamkorligi ham juda ahamiyatlidir. Shunday ekan biz kattalar yosh oilalarga ibrat bo‘lib ularni bir-birlariga va statuslariga ham moslashuvida yordam berishimiz kerak.

**REFERENCES**

1. Shavkat Mirziyoyev «Oila kichik vatan, oila tinch bo‘lsa, baxtli bo‘lsa, vatan tinch bo‘ladi» Xabar.uz 22.01.2018;
2. Харчев А.Г. Брак и семья в СССР. – М.: Наука, 1979. – С. 34.
3. Тощенко Ж.Т. Социология. Общий курс. 2-е изд. доп. и перераб. – М.: Прометей, Юрайт, 1999. – С. 201.
4. Психология. Словарь. М.: Политиздат, 1990; Левкович В.П. Особенности супружеских взаимоотношений в разнонациональных семьях // Психол. журн. 1990. Т. 11. № 2. - С. 25-36; Олейник Ю.Н. Исследование уровней совместимости в молодой семье // Психол. журн. 1986. Т. 7. № 2. - С. 59-65
5. Ростовская Т.К. Молодая семья в современном российском обществе // Молодежь и общество. – №3. 2007. – С. 41-46.
6. Молодая семья: проблемы и перспективы социальной поддержки / под общей редакцией Е.В.Жижко, С.Д.Чигановой. – Красноярск: РУМЦ ЮО, 2005. – 300 с
7. Психология семьи: Учебник для педагогических Вузов // Автор: В.М.Каримова. – Т., 2007. - 316 с.
8. Maňalla va oilani қўллаб-қувватлаш вазирлиги томонидан берилган статистик маълумотлар. 2020 йил декабрь маълумотлари.